

Eng muhimi...

Har kimning hayotida shunday vaqt keladiki, nimanidir o'zgartirish kerakligini his etasan. Kiyimlarni o'zgartirasan, telefonidagi musiqalarni yangilaysan, ertalab har doimgi qahva o'rniga choy ichishni boshlaysan, ammo bular senga yordam bermayotgandek tuyulaveradi. Shunday qilib, eng so'nggi chora: yashash joyini o'zgartirish qoladi. Qaror qabul qilib esa, narsalaringni yig'ishtirasanu, ketasan. Bu sen uchun eng yaxshi yo'ldek ko'rinadi va dunyoga kelganingdan beri hech narsa, umuman hech narsa o'zgarmagan, sen esa shaharchangdan ketishni sabrsizlik bilan kutasan. Shu shaharchada faqatgina butazor o'zgarib turadi xolos. Xuddi muammolardan qochayotgandek, ularga ko'z yumayotgandeksan yoki qochayotganingni berkitish uchun "qochmoq" so'zini "xotirjamlik"ka o'zgartirayotgandeksan.

Dunyoni, odamlarni ko'rib, turli kitoblarni o'qib va xotirjamlik qayerdadir emas, balki faqatgina sening o'zingda bo'lishini tushunib yetganingdan keyin, uyga qaytishga qaror qilasan. Axir, xotirjamlik doim kimgadir yoki nimagadir bog'liq bo'lib chiqar ekan. Mening xotirjamligim men yolg'iz qoldirgan onam va singlimga bog'liq ekan. Qarasam mening xotirjamligim ularning o'zi ekan.

To'rt yil davomida dunyo bo'ylab daydirdan so'ng, va nihoyat uyimiz eshigi oldida turib kimdir tezroq eshikni ochishini intizorlik bilan kutardim. Ichimda hamma narsa hayajondan alg'ov-dalg'ov bo'lib ketgandi. Hattoki XXI asr ham o'zining turli gadjetlari, ixtirolari va kashfiyotlariga qaramay, inson his-tuyg'ulari bilan bog'liq bo'lgan masalalarga yechim topa olmayapti. Albatta men yaqinlarim bilan aloqani uzib qo'ymaganman, ammo tan olish kerak, skype orqali yaqinlarimizni qucha olmaymiz. Chalg'itish va pul ishlab topish uchun o'ylab topilgan ko'plab ilovalar baribir xotirjamlik bera olmaydi. Vaqt o'tishi bilan joningga tegishni boshlaydi yoki depressiyaga yo'l ochib beradi. Oddiy misol: skype orqali gaplashayotganingda onang shunchaki seni sog'ingani uchun sevimli taomingni pishirayotganini ko'rsan, sen esa u yerda emassan, onang bilan emassan va bu taomni yeyolmaysan. Gap taomda emas. Gap uni kim va kim uchun pishirganida. O'zing ham bu taomni o'zing uchun pishira olasan. Bu bor yo'g'i yarim soat vaqtingni oladi xolos. Ammo bu taom, sen uchun seni jonidan ortiq ko'radigan odam pishirgan taomchalik bo'la olmaydi. Aynan mana shunday vaqtlarda hammasi behuda ekanini tushunib yetasan. Insonning muhabbatga to'yingan og'ushda bo'lishni oddiy ilovalar bilan almashtirib bo'lmaydi. Ular yordam beradi. Bu haqiqat. Ammo vaqtinchalik.

Eshikni ochib, meni ko'rishi bilan singlim xursandchilikdan baqirib meni quchoqlay ketdi. Onamga qo'ng'iroq qildik, onam esa ishlarini tezroq tugatib, bizning yonimizga shoshildilar. Vanihoyat turli restoranlardan buyurtma qilingan taomlar bilan bezatilgan stol atrofida uzoq kutilgan oilaviy kechki ovqatga ham yetib keldik. O'sha kuni hech kimning ovqat pishirgisi kelmagandi.

-Shuncha yil qayerda eding? - deb so'radi singlim. U juda o'zgargan. Bo'yi mendan balandroq, chiroyliroq va kelishganroq bo'libdi. Fitnes bilan shug'ullanish ancha foyda beribdi. Bu juda yaxshi albatta.

-Sizlarsiz yashay olamanmi yo'qmi, shuni bilmoqchi edim, – deya javob berdim va onam bilan singlimning nigohlari birdan o'zgardi.

-Xo'sh?

-Yasholmas ekanman.

-Albatta azizam. Axir biz bir oilamiz, – deydi onam sochlarimni silab, qizil vinodan ichaturib.

“Qiziq, nega biz mustaqil bo'laturib, baribir yaqinlarimiz va qarindoshlarimizga tayanamiz? Nima uchun ulardan birini yo'qotib qo'ysak, dahshatli qalb og'rig'idan azoblanamiz va tushkunlikka tushamiz? Axir, oxir-oqibat hamma o'ladiku. Balki men vaqtiliq o'larman yoki onam... yo'q, yaxshisi avval men. Nima uchun bizga bunday his-tuyg'ular kerak?”

-Nimalar haqida o'ylab qolding qizim? – onamning ovozini yaqinida turib eshitishim bilanoq miyam bor e'tiborni onamga qaratadi. Onaning ovozini yonida o'tirib eshitish naqadar yoqimli.

-Balki muhim yoki keraksiz narsalar haqida o'ylanib qoldim chog'i. Keling bu haqda gaplashmaymiz – deya javob berdim men ham vinodan ichaturib.

-Tun bunchalar donishmand bo'lmasa? – nimadandir zavqlanganday gapirdi singlim.

-Yolg'iz yashab ko'r. O'shanda tun donishmand emas, balki sovuq va dahshatli ekanini tushunib yetasan. Yolg'iz yashash – umuman boshqa narsa.

-Bilmadim qaysi faylasufning kitoblarini o'qishni boshlagansan, ammo aniq mijg'ov bo'lib qolibsan, – dedi singlim qovog'ini solib va oyim ikkalamiz kulib yubordik. Qovoq solish singlimga juda yarashadi. Bu payt u yanayam yoqimtoy va go'zalroq bo'lardi.

-Agar istasang o'qishga kitob berib turishim mumkin.

-Yo'q rahmat. Hayotdan ma'no izlagandan ko'ra undan zavqlanib yashash ma'qul.

-Bu yaxshi. Chunki Olovuddin chirog'ini topish ham osonroq – deb hazillashib qo'ydi onam.

“Qiziq, odamlarga nima kerak ekan-a? Nega ular bir narsani istashadiyu, o'zlari uning aksini bajarishadi? Nega odamlar butun dunyoda tinchlik bo'lishini istashadiyu, bir vaqtning o'zida shunchaki turli joylarda tug'ilganlari uchun bir birlarini yomon ko'rishadi?”

-Nima haqida o'ylanib qolding? – singlimning qo'ng'iroqchalardek mayin ovozi eshitildi.

-Har xil muhim bo'lmagan narsalar haqida. Balki muhimdir, ammo, agar ular haqiqatdan ham muhim bo'lganida, barchasi o'zgacha bo'lgan bo'lardi.

-Ba'zida seni tushunolmayman Liz – dedi singlim asta va ohistalik bilan qovurilgan baliqni kesayotib va xuddi shunday ohistalik bilan uni tishlab. Onam bizni yoshligimizdan to'g'ri ovqatlanishga o'rgatgan. Shunchaki go'zallik yoki tartib uchun emas, balki sog'lik uchun ham.

Har zamon onamning tarbiyasi haqidagi xayollar birin-ketin ko'z oldimda gavdalanardi. Onam bizning o'qishimizga nisbatan juda qattiqqo'l edilar. Agar yaxshi o'qimasak, maktab bergan kitoblarni olib qo'yishlarini aytib qo'rqtardilar. Onam: “Agar baholaringiz yaxshi bo'lmasa, demak sizlarga kitob umuman kerak emas ekan. Demak sizlarga o'qish, o'rganish yoqmaydi. Demak sizlar bilmaslikni tanlaysizlar. Bilmaydiganlar esa doim biladiganlarga tobe bo'ladi” – der edi. Bu gaplar men uchun qonundek edi, va meni butun umrga o'zgartirib yuborgandi.

Tinch, sokin va maroqli kechki ovqat bir marta eshik taqillashi sabab buzilgandi.

-Sizlarga aytishni unutibman. Kechki ovqatga Kler xolani ham taklif qilgandim – dedi singlim birdan eslab qolib.

-Nima uchun Lora? – jahl bilan so'radim.

-Qizishma – dedi onam meni tinchlantirishga urinib. Onamning urinishlari samarasiz edi. Butkul.

Kler xolam men uchun doim men ko'rishni istagan odamlar ro'yxatida eng so'nggi o'rinda turardi.

Endi esa stol atrofida “biz” emas, balki “biz” va mendan bir yosh katta o'g'li bilan kelgan bir ayol ham o'tirar edi.

-Nihoyat qaytibsa – gap boshladi Kler xolam.

-Ha ko'rib turganingizdek.

-Xo'sh, shuncha vaqt davomida nimalar bilan shug'ullanding? Qayerda ishlading?

-Hoynahoy bu sizga qiziq bo'lmasa kerak.

-Masalan Jek kollejni tugatdi, yaqinda uylanadi – xushxabarni suyunib aytardi xolam. Aniqrog'i, suyunib maqtanardi. Axir, hech birimiz uchun na xolam va na uning o'g'li qiziq emasdi, Lora esa mening kelganimni xolamdan ular qo'n'giroq qilganlarida yashirolmagan.

-Tabriklaymiz – dedi onam xursand bo'lib.

-Senchi? – xolam yana menga murojaat qilardilar – Qachon o'z yarmingni topmoqchisan Lizzi?

-Bilmadim. O'zimni chala deb hisoblamayman. Menimcha umr yo'ldosh topaman, yarmimni emas – kesatiqni ichimda ushlab turolmadim, evaziga esa xolam va o'g'lining sovuq hamda norozi ko'zqarashlariga sazovor bo'ldim.

-Yanglishmasam, kitob o'qishni yoqtirasan, shundaymi Liz? – kutilmaganda Jek suhbatni boshlab qoldi. Meni u suhbat uchun tanlagan mavzu hayratda qoldirgandi. Chunki men butun umrim davomida uning qo'lida kitob ko'rmagandim.

-Albatta.

-Ular senga pul keltiradimi? – Jekning ovozida kesatiq notalari sezilib turardi, uning qarashi esa buni isbotlardi.

-Bu muhimmi?

-Bu har doim muhim bo'lgan. To'rt yil davomida dunyo kezding. Shunchaki pul ishlatding. Agar biror bir universitetni tamomlaganingda, ish topgan bo'larding... – ortiq uning bema'ni gaplarini eshitishni istamadim va o'z fikrimni ochiq aytishga qaror qildim.

-Va sen hamda sen kabilarga o'xshab yasharmidim? Ha, men daydib yurdim, ha, men quruq pul sarfladim, g'alatiya, axir bu mening hayotimku.

-Xo'sh bu hayotingda nimaga erishding? – bahsga xolam ham qo'shilgandi.

Odamlar doim o'zgalar hayotini muhokama qilishni sevishlarini yaxshi tushunardim. Turli aqida va stereotiplarga asoslangan jamiyat shunday ishlaydi. Va bunday jamiyat ich etigacha makkor. U o'zgacha fikr egalari nisbatan toqatsiz. Chunki stereotiplar bu stereotiplar, hattoki ular yoshi yuzdan oshgan va XXI asr uchun o'ta qarilik qilsa ham.

“Qiziq, nega odamlar ongli ravishda aqliy rivojlanishdan bosh tortishayapti ekan?”

-Men ko'p narsaga erishdim. Masalan, ko'p narsa tarbiyaga bog'liqligini tushunib yetdim. Tarbiyaga hattoki bolaning qanday fikrlashi ham bog'liq ekan. “Erkin fikrlash” nima ekanligini bilmasdan turib, bolani tarbiyalash qiyin. Qolaversa, “asr” har doim ham rivojlanishni anglatmasligini tushundim, asrda degradatsiya ham yashashi mumkin ekan. Sizlar bunga yaqqol misolsizlar. Bundan tashqari bir katta nashriyotga muharrir bo'lib ishga kirdim. Ha, albatta biz “pul keltiradigan” kitob bosmasi bilan shug'ullanamiz. Ammo nashriyotimiz uchun bu muhim emas. Biz uchun insonlar yaxshi kitob o'qishlari, aqlan rivojlanishlari, kengroq fikrlashlari, savol berishlari muhim, axmoqona propaganda qurboni bo'lgandan ko'ra.

Jimjitlik. Onam va Lora menga hayrat to'la ko'zlari bilan qarardilar. Xolam va uning o'g'lida esa nafrat va norozi ko'zqarashlari charaqlab turardi. Ularni o'zgartirish ilojsiz edi.

Men esa jimgina salat yeb, vino ichib o'tiraverdim. Onam bilan Lora ham. Biroq xolam va Jek shunchaki turib ketishdi. Ular bizdan boyroq yashardi. Axir pochcham yaxshi daromad topadida. Shuning uchun ham ular hayotda pul va obro' muhim deb bilishardi va nafs ta'siriga osongina berilib ketishardi. Ularning fikricha, agar sen boy va bir nechta uylar sohibi bo'lsang, demak bemalol boshqalarga qanday yashash kerakligini o'rgata olasan. Faqat ular mening oilamda hammasi boshqacha ekanini inobatga olishmagandi.

-Ularga birovning ishiga aralashib yurish juda muhim. Balki endi bizning ishlarimizga burun suqishni bas qilishar – kulib yubordi onam. Onamning kulishlari biram yoqimli – Ammo Lizzi, bu hurmatsizlik edi!

-Xo'p – dedim, onamning tanbehlaridan juda xursand bo'lib.

-Sen uchun eng muhimi nima Liz? – so'radi Lora. Uning qiziquvchanligi meni quvontirardi.

-Eng muhimi? Menimcha, onam, sen va mana shu suhbat. Mana shunday shunchaki o'tirib suhbatlashish, o'tmishni eslash, hozirni birga o'tkazish va kelajak haqida ham birga o'ylash. Shu stol atrofida sizlar bilan boqiy qolish uchun borimni bergan bo'lardim – onamning quvonchli nigohlarini sezmaslikning iloji yo'q edi.

-Baribir Liz. Turmush quradigan payting kelgan.

-Oyiii!

Siz hammasi yaxshi nuqtada tugagan deb hisoblarsiz, balki rostdan ham shundaydir. Shu to'rt yilda men ko'p narsani o'rgandim. Barcha insoniy muammolarning sababi odamlarning o'zlari ekanligini, va agar ular o'zgarishni istashmasa, ularni o'zgartira olishning ehtimoli juda kamligini tushunib yetdim. Shu to'rt yil davomida men aynan shu ish bilan shug'ullandim: qanday qilib bo'lsada, odamlarga ko'mak berishga urindim. Ammo barchasi behuda ekan. Biroq, taslim bo'lmadim. Faqat endi bu men uchun muhim emas. Men uchun eng muhimi bu – mening oilam va uning tinchligi: mening suyuqli, qattiqqo'l va mehribon onam hamda qiziquvchan, yoqimtoy va qolaversa optimist singlim ekan.

Muallif: Eliza K

Tarjimon: Lily

Muharrir: Jamshid Nurqul